

“VODIYNOMA” JURNALI SAHIFALARIDA FARG‘ONA VODIYSI ARXELOGIYASI: TAHLIL VA ILMIY XULOSALAR

Mahliyo Turdixo‘jayeva Muqimxo‘ja qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

PhD

ORCID-ID:0009-0008-5599-9647

ANNOTATSIYA

Maqolada “Vodiynoma” jurnalida chop etilgan Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga oid ilmiy maqolalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Farg‘ona vodiysida olib borilgan arxeologik izlanishlar, qadimiy madaniyat qatlamlari, dafn marosimlari, shaharsozlik jarayonlari va yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy natijalar tahlil qilindi. Shuningdek, vodiyning antropogenetik taraqqiyoti, aholi madaniy aloqalari hamda arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish masalalari yoritilgan maqolalar o‘rganilib, ularning ilmiy yondashuvlari va tahliliy uslublari ko‘rsatib o‘tildi. Tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysi arxeologiyasining o‘rganilishida “Vodiynoma” jurnalining ilmiy maktab sifatidagi o‘rni va hissasini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, “Vodiynoma” jurnali, arxeologik tadqiqotlar, qadimiy madaniyat, antropogenez, dafn marosimlari, shaharsozlik, yodgorliklarni muhofaza qilish, ilmiy yondashuv.*

ABSTRACT

This article analyzes scholarly works published in the journal “Vodiynoma” that focus on the archaeology of the Fergana Valley. The study examines the results of archaeological research conducted in the valley, including ancient cultural layers, burial traditions, urban development processes, and the study of archaeological monuments. Furthermore, the articles covering issues of anthropogenetic development, cultural interactions of the population, and the preservation of archaeological heritage were reviewed, emphasizing their methodological approaches and analytical perspectives. The findings of the study highlight the significant role of the “Vodiynoma” journal as an academic platform contributing to the development of archaeological research in the Fergana Valley.

Keywords: *Fergana Valley, “Vodiynoma” journal, archaeological research, ancient culture, anthropogenesis, burial traditions, urban development, heritage preservation, scientific approach.*

Farg‘ona vodiysi tarixini qamrab oluvchi hamda vodiylar tadqiqotchilarining ilmiy yangiliklarini doimiy tarzda e‘lon qilib boruvchi jurnal “Vodiyнома” R. Shamsutdinov tomonidan asos solingan bo‘lib, ushbu ijtimoiy-tarixiy, ilmiy jurnal 2016-yilda tashkil etilgan. Unda tarixchi, arxeolog olimlarning Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ilmiy, maqolalari, ilmiy axborotlari, yangi ilmiy yangiliklarining hisobotlarini nashr qilish orqali vodiylar tarixini ilmiy adiqi etishni maqsad qilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Ushbu jurnalda vodiylarning shahrsozlik madaniyatiga ayniqsa doimiy muammoli va dolzarb hisoblangan qadimgi Dovoning poytaxti lokalizatsiyasiga bag‘ishlab yozilgan ilmiy maqolalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Qolaversa buyuk farg‘onashunos ikki yirik arxeolog B. Matboboyev, A. Anorboyevlarning poytaxt masalasidagi tortishuvli qarashlari doimiy e‘lon qilinib borgan. Jurnalning aksariyat sonlarida biz tadqiq etyotgan muammo doirasidagi maqolalar soni 3 tani tashkil qiladi. Xususan, ilk sonda M. Isomiddinov, S. Mirsoatova, B. Abdullayev, A. Anorboyev¹larning tadqiqotlarini uchratish mumkin. 2017-yil 3-sonda A. Anorboyevning Farg‘onaning antik va ilk o‘rta asrlar tarixiga bag‘ishlagan ilmiy maqolasi e‘lon qilingan ². Muallif xitoy manbalaridagi ma‘lumotlarni arxeologik tadqiqotlar bilan qiyoslab, vodiylarning shahar va shahar tipidagi qarorgoglarining joylashuvi, poytaxt lokalizatsiya masalalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalarini tahlil etgan. E‘tiborli tarafi, qadimgi Farg‘ona aholisi xo‘jaligida muhim hisoblangan sholi va bug‘doy o‘zimgliklarini arxeologik-geografik tekshiruv xulosalari bilan vodiylardagi ba‘zi bir hududlarning daryo va soy bo‘ylarida yovvoyi bedani hali ham uchratish mumkinligini ta‘kidlagan. Maqola tahlili shuni ko‘rsatdiki, miloddan avvalgi II-I asrlarda Farg‘onaning daryo va soy havzalarida bir necha o‘nlab shaharlar va shu tipdagi qarorgoglar paydo bo‘lgan. Bu masalani Sho‘rabashat, Mingtepa, Sarvontepa, Tepaqo‘rg‘on va boshqa bir qator yodgorliklar orqali tushinish mumkin. Maqolada arxeologik tadqiqotlarga asoslangan holda qadimgi farg‘onaliklarning diniy e‘tiqodlari hamda dunyo qarashlari sopol buyumlar tasvirlari orqali mukammal tarzda fikr bildirilgan. Shaharlar qurilish texnologiyasining mahalliy an‘analar bilan birga qo‘llanilishini antik va ilk o‘rta asrlar qarorgohlaridagi arxeologik qazuv ishlari natijalari ham ko‘rsatishini ushbu maqolani o‘qib xulosa qilishimiz mumkin. Qadimgi davr tarixini yoritishda qabrlarda olib borilgan tekshiruv ishlarining bergan xulosalari muhimdir. Keyingi maqola Ustrushona va Farg‘ona vodiysi hududlari madaniy a‘loqalarining qay tarzda bo‘lganligi masalasini dafn marosimlari orqali ifodalagan.

¹ Исомиддинов М Фарғона одами ва антропогенез жараёни // Водийнома 2016 йил № 1. – Б. 23-27

² Анорбоев А. “Фарғона антик ва ilk ўрта асрлар даврида”// Водийнома 2017 йил № 3. – Б. 19-24

Maqolada, F. Toshboyev, J. Toshboyevlarning qadimgi Farg‘ona vodiysida o‘rganilgan chorvadorlarga oid dafn marosimlari va mozor–qo‘rg‘onlardagi arxeologik topilmalarga asoslanib xulosalari berilgan³. Ularning fikricha, Farg‘ona vodiysidagi moddiy madaniyat namunalarida miloddan avvalgi II asrdan o‘zgarishlar kuzatiladi. Ya’ni Farg‘ona vodiysining daryo va soy havzalarida bir nechta shahar va shu tipdagi qarorgohlar paydo bo‘ladi. Ilmiy maqolada yorma qabrlarning o‘ra qabrlardan farqli jihatlari tushuntirilgan bo‘lib, yorma go‘rlarning ayvoni uzun tomonidan o‘likni qo‘yish uchun uzunasiga “yorma” qilinishi tushuntirilgan. Maqolada ushbu jihatlari Ustrushona hududiga qiyosiy tahlil qilingan holda vodiya dafn marosimlaridagi o‘ziga xosliklarni ochib berilgan. Jurnalning yutuqli tomonlaridan biri unda so‘nggi fundamental nashrlar bilan tanishtirish maqsadidagi maqolalar ham uchraydi. Xususan, F. Maqsudovning maqolasi arxeolog A. Anorboyevning “Axsiket–qadimgi Farg‘onaning poytaxti” nomli 2013-yili Toshkentda nashr etilgan ilmiy monografiyasiga bag‘ishlanadi. Farg‘onaning qadimgi va ilk o‘rta asr shahar madaniyati tarixiga bag‘ishlangan ushbu asar Eski Axi arxeologik yodgorligi materiallari asosida vujudga kelgan. Bir necha yilgi arxeologik qashishmalar natijasida qo‘lga kiritilgan topilmalar asosida va yozma manbalar ma’lumotlari jalb etilgan holda vujudga kelgan ushbu asar umumiy hajmi 536 bet va 63 ta rasmdan iborat⁴.

F. Maqsudovning ta’kidlashicha, 1980-1990-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalarning natijalarining natijasi keltirilgan ushbu asar Axsiket yodgorligida ochilgan qurilmalarning va qo‘lga kiritilgan materiallarning xronolik turkumlanishini tadqiq etadi. Bu esa ushbu shahar o‘tmishini tiklashga yordam beradi. Antik davrda Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan angob sopol idishlarning yangicha sanalashtirilishi asosida Farg‘ona shaharlarining davrlariga ilk bora aniqlik kiritilganligi bilan ham kitob e’tiborlidir. Anorboyev tadqiqotining avvalgi ishlardan farqi, muallif oldingi tadqiqotlarni jamlab, yangi qo‘lga kiritilgan arxeologik ma’lumotlar bilan boyitib, eng muhimi ularni yozma manbalar bilan qiyoslaganidir. Ushbu monografiya Eski Axi, Eylaton, Mingtepa, Mug‘tepa, kabi biqator yodgorliklarda topilgan arxeologik topilmalarni jamlagan, tahlil etga bu orqali vodiya shaharlarining mil. avv. III-II asrlardan mo‘g‘ul istilosigacha bo‘lgan tarixini bosqichma bosqich yoritgan. A. Anorboyev vodiyni 1,5 ming yil davomidagi shahar madaniyatini o‘rgangan. Shaharning lokalizatsiya masalasini ham ko‘rib chiqqan holda, qadimgi Farg‘ona konfederativ davlat bo‘lganligi uning bosh poytaxti bir toponim bilan Farg‘ona deb atalganligini aytib o‘tadi. Bu esa muhim bo‘lgan

³ Тошбоев Ф., Тошбоев Ж. “Уструшона ва Фарғона водийси қадим аҳолиси маданий алоқаларининг дафн маросимларида акс этиши” // Водийнома 2017 йил № 3. – Б. 25-29

⁴ Мақсудов Ф. Водийнинг узок ўтмишига бағишланган тадқиқот // Водийнома 2017 йил № 4. – Б. 96-100

qadimgi Fargʻona poytaxti maslasidagi muammolarga yechim bera olgan. 2018-yildagi nashrda Axsikent arxeologiya obyektni oʻrganish va muhofaza qilish masalasiga doir nomli maqolasi bilan Fargʻona vodiysi ilk paleolit davridan boshlab ibtidoiy odamlar yashagan makon qilsoblanishini taʼkidlagan holda A. Anorboyev Janubiy Fargʻonaning Soʻx vohasidan topilgan tosh qurollar buni isbotlashini uqtiradi. Olimning fikricha, keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar Shimoliy Fargʻona yaʼni hozirgi Namangan viloyati hududi soʻnggi paleolit davridan oʻzlashtirila boshlangan va Gʻovasoy va Kosonsoy hududlarida ushbu davr odamlari yashagan. Mil.avv. X-IX asrlarda Sharqiy Fargʻonada ilk kanallar qurila boshlab, bir qancha yerlar oʻzlashtiriladi va dehqonchilik qilinadi. Ushbu maʼlumotlarni Eski Aysi yodgorligida aniqlangan agroirrigatsion qatlamlar isbotlaydi.

Arxeolog maqolasida Axsikentni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirishning maqsadi, qilinishi kerak boʻlgan ishlar, shuningdek, shaharning qadimgi, antik, ilk, rivojlangan, soʻnggi oʻrta asrlar davridagi koʻrinishi haqida xulosalarini bayon qilgan⁵. Jurnalning keyingi sonida akademik yirik olim A. Asqarovning yangi ilmiy kashfiyoti natijasi eʼlon qilingan. Olim arxeologik qazishmalari natijasida Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa Buloqmozor atrofida 2 ta arxeologik yodgorlik majmuasi borligini aniqladi. Qazishmalarning dastlabki vaqtida Uchtepa qishlogʻi bundan 2-2,5 ming yil avval Uchtepada qad koʻtargan tepalar asosida tarkib topganligini aniqlab, qazishma paytida ochilgan meʼmoriy qurilma qoldiqlari va topilmalar tarkiblari bu tepa qadimgi shahar aholisining quyoshga sigʻinadigan muqaddas ibodatxonasi boʻlganligiga ishonadi. Shuningdek, A. Asqarov qazishmalar jarayonida otashparast kohinlarga tegishli qora serpentin toshidan yasalgan uchi uchi oʻqsimon ilohiy predmet, tosh sanamlar, dafna bargi shaklidagi tosh pichoq, naqshli terrakota urchuqtoshlar hamda kulolchilik charxida yasalgan turli sopol parchalari topgan va uni tavsiflagan⁶. Soʻnggi yillarda Fargʻona vodiysi arxeologiyasidagi muammoli holatlarni hal qilishda A. Anorboyevning fundamental asarlari hamda, ilmiy maqolalari oʻzining chuqur tahlilga asoslangan yangi materiallarga boyligi bilan asosiy oʻrinni egallab kelmoqda.

Olimning yana bir maqolasi 2020-yil 2-sonda nashr qilindi. Ushbu materiallar ilmiy qarashlar hamda yozma manbalarining maʼlumotlari bilan qiyosiy tahlil etilgan holda eʼlon qilinmoqda. Vodiynoma jurnalining 2020-yil 2-sonida eʼlon qilgan maqolasi orqali A. Anorboyev bir necha yillardan beri aniq xulosaga ega boʻlmagan Eski va Yangi Aysi joylarining lokalizatsiya hamda tarixi boʻyicha bir qancha aniq

⁵ Анорбоев А. Ахсикент археология объектини ўрганиш ва муҳофаза қилиш масаласига доир // Водийнома 2018 № 2. – Б. 10-16

⁶ Асқаров А. Асқаров Қ. Тўхтасинов Д..Уchtepa Булоқмозор археологик ёдгорлиги // Водийнома 2019 йил № 2. – Б.11-13

va asosli xulosalarni berib o'tadi⁷. Muallif o'z maqolasida ba'zi risola va maqolalarning tanqidiy jihatlariga to'xtalib, ushbu muammo bo'yicha yaratilgan nazariyalarning kamchiliklarini aniq isbotlab bergan. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlarga asoslangan holda ushbu masalani yoritishni eslatib o'tgan Anorboyev Eski va Yangi Aysi toponimlari bitta Axsikatning turli vaqtlarga oid shahar qoldiqlariga mahaliy xalq tomonidan berilgan nom ekanligini, bugungi kundagi Aysi qishlog'i esa 1620 yildagi daxshatli zilziladan so'ng vujudga kelgan qishloq hisoblanishini yakuniy xulosa sifatida keltirgan. Ushbu xulosalarni ifodalovchi arxeologik dalillarning kettirishi esa ishning qiymatini yanada oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Vodiynoma" jurnali Farg'ona vodiysi arxeologiyasiga oid tadqiqotlarni yoritishda muhim ilmiy manba sifatida alohida o'rin egallaydi. Jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalar orqali vodiyning qadimiy va o'rta asrlar tarixiga doir yangi ma'lumotlar, arxeologik yodgorliklarning topografiyasi, madaniyat qatlamlari, shaharsozlik jarayonlari va antropogenetik rivojlanish masalalari keng yoritilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mualliflar o'z tadqiqotlarida zamonaviy arxeologik metodlardan, xususan, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil va madaniy-tipologik uslublardan samarali foydalanganlar. Mazkur ilmiy manbalar nafaqat Farg'ona vodiysi arxeologiyasining tarixiy jarayonlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi, balki O'zbekiston arxeologiya fanining ilmiy maktabi shakllanishida "Vodiynoma" jurnalining o'rni va ahamiyatini ham ochib beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarni yanada tizimlashtirish, arxeologik ma'lumotlarni raqamlashtirish va interdisiplinar yondashuvlarni keng qo'llash Farg'ona vodiysi madaniy merosini chuqurroq o'rganish va uni xalqaro ilmiy maydonda targ'ib etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Anorboev A. Farg'ona antik va ilk o'rta asrlar davrida // Vodiynoma. – 2017. № 3. – B. 19–24.
2. Anorboev A. Ahsikeht arxeologiya obyekti-ni o'rganish va muhofaza qilish masalasiga doir // Vodiynoma. – 2018. № 2. – B. 10–16.
3. Anorboev A. Farg'ona-Axsikat shahri tarixi va u bilan bog'liq muammolar haqida // Vodiynoma. – 2020. № 2. – B. 31–40.
4. Asqarov A., Asqarov Q., To'xtasinov D. Uchtepa Bulqmozor arxeologik yodgorligi // Vodiynoma. – 2019. № 2. – B. 11–13.
5. Isomidinov M. Farg'ona odami va antropogenez jarayoni // Vodiynoma. – 2016. № 1. – B. 23–27.

⁷ Anorboev A.. Farfona-Ahsikat shahri tarixi va u bilan bog'liq muammolar haqida // Vodiynoma 2020 yil № 2. – B. 31-40

6. Maqsudov F. Vodiyning uzoq o‘tmishiga bag‘ishlangan tadqiqot // Vodiynoma. – 2017. № 4. – B. 96–100.
7. Toshboev F., Toshboev J. Ustrushona va Farg‘ona vodiysi qadim aholisi madaniy aloqalarining dafn marosimlarida aks etishi // Vodiynoma. – 2017. № 3. – B. 25–29.